

130-22 Raqamli iqtisodiyot guruhi talabalari uchun “Yashil iqtisodiyot” fanidan yakuniy nazorat savollari

1. “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tishning asosiy maqsadini ayting.
2. “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tishning asosiy tamoyillarini sanang.
3. “Yashil iqtisodiyot”ning axborot resurslarini ko‘rsating.
4. “Yashil” ish o‘rinlari tushunchasini ta’riflang.
5. “Yashil iqtisodiyot”ni tavsiflovchi ko‘rsatkichlarning mohiyatini ayting.
6. Jahon bankining “yashil o‘sish” natijaviy naf ko‘rsatkichlari tarkibiga kiruvchi ko‘rsatkichlarni sanab bering.
7. “Yashil moliyalashtirish” tushunchasiga ta’rif bering.
8. “Yashil loyihalar” qanday loyihalar ekanini ayting.
9. “Yashil obligatsiyalar”ning mazmuni va turlarini ko‘rsating.
10. “Tiklanadigan energiya” tushunchasini izohlang va manbalarini sanang.
11. Organik qishloq xo‘jaligi tushunchasiga ta’rif bering.
12. Ekologik siyosatning asosiy turlarini sanab bering.
13. “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasining tamoyillarini ko‘rsating.
14. “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasining maqsadli ko‘rsatkichlari va indikatorlarini ayting.
15. “Yashil iqtisodiyot”ni qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlariga kiruvchi vositalarni sanang.
16. Sanoat korxonalarini uchun yashil iqtisodiyot tushunchasini ta’riflang.
17. Qayta tiklanadigan energiya manbalarining sanoat korxonalarini uchun ahamiyatini ayting.
18. Suv resurslarini tejashning sanoat korxonalarini uchun mazmunini ta’riflang.
19. Aylanma iqtisodiyotning sanoatdagi o‘rnini ayting.
20. Sanoatda karbon izini kamaytirishning ahamiyatini izohlang.
21. Sanoatda barqaror ishlab chiqarish tushunchasini ta’riflang.
22. Sanoatda ekologik jihatdan toza mahsulot ishlab chiqarish tushunchasini izohlang.
23. Sanoat korxonalarini uchun ekologik risklarni boshqarish tushunchasini ta’riflang.
24. Barqaror rivojlanish va “yashil iqtisodiyot” tushunchalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntiring.
25. Resurslarning cheklanganligi bilan “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish zaruriyati o‘rtasidagi aloqani izohlang.
26. “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish siyosatida foydalaniladigan dastaklarni sharhlang.
27. “Yashil iqtisodiyot” uchun inson kapitalini rivojlantirishning ahamiyatini tushuntiring.
28. “Yashil” ish o‘rinlari va ta’lim o‘rtasidagi bog‘liqlikni izohlang.
29. “Yashil iqtisodiyot”ni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tizimini aniqlash bo‘yicha mavjud yondashuvlarni tavsiflang.

30. UNEP ishlab chiqqan “yashil iqtisodiyot” va “yashil o‘shish” ko‘rsatkichlarining guruhlanish mezonlarini tushuntiring.
31. IHTT tomonidan tavsiya etilgan “yashil iqtisodiyot” ko‘rsatkichlari guruhini sharhlang.
32. “Yashil moliyalashtirish” tizimining tarkibi va rivojlanish yo‘nalishlarini tushuntiring.
33. “Yashil energetika”ning tez rivojlanish sabablari va omillarini izohlang.
34. Davlat tomonidan “yashil energetika”ni qo‘llab-quvvatlash usullarini tushuntiring.
35. Organik qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini sharhlang.
36. 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan qishloq xo‘jaligi strategiyasida organik qishloq xo‘jaligining ustuvor yo‘nalishlarini tushuntiring.
37. Ekologik siyosatni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmini izohlang.
38. IHTT mamlakatlarida “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish dasturlarining umumiy va farqli jihatlarini tavsiflang.
39. AQSH tajribasida “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishning o‘ziga xos xususiyatlarini sharhlang.
40. Yevropa Ittifoqida “yashil o‘shish” strategiyasining ustuvor yo‘nalishlarini tushuntiring.
41. Germaniyada “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishning asosiy xususiyatlarini izohlang.
42. Koreya Respublikasida “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish omillari va 2040 yilgacha bo‘lgan dastur ustuvorliklarini sharhlang.
43. Xitoyda “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishning rivojlangan mamlakatlardan farqli tomonlarini tushuntiring.
44. Belarussiyada “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish konsepsiyasining maqsadi va ustuvor yo‘nalishlarini izohlang.
45. O‘zbekistonda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasining maqsadi, tamoyillari va vazifalarini tushuntiring.
46. “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasining amalga oshirish bosqichlari va ustuvor yo‘nalishlarini sharhlang.
47. Energiya resurslari iste‘molini diversifikatsiyalash va muqobil energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish yo‘nalishlarini izohlang.
48. Yashil iqtisodiyotning sanoat rivojlanishiga ta‘sirini tushuntiring.
49. Sanoat korxonalarida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish yo‘llarini sharhlang.
50. Yashil iqtisodiyot sanoatda energiya samaradorligini oshirishga qanday xizmat qilishini tushuntiring.
51. Yashil texnologiyalar sanoatda yaratadigan yangi imkoniyatlarni izohlang.
52. Yashil iqtisodiyotning sanoatda inson salomatligiga ta‘sirini tushuntiring.
53. Yashil iqtisodiyot sanoatda innovatsiyalarni qanday rag‘batlantirishini izohlang.
54. Yashil iqtisodiyot sanoatda ish o‘rinlarini yaratish mexanizmini tushuntiring.
55. Yashil iqtisodiyot sanoatda raqobatbardoshlikni qanday oshirishini izohlang.

56. Yashil iqtisodiyot sanoatda xavfsizlikni qanday ta'minlashini tushuntiring.
57. Yashil iqtisodiyot sanoatda ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga qanday ta'sir qilishini izohlang.
58. Yashil iqtisodiyot sanoatda moddiy resurslardan samarali foydalanishni qanday ta'minlashini tushuntiring.
59. Yashil iqtisodiyot sanoatda tabiiy boyliklarni saqlashga qanday hissa qo'shishini sharhlang.
60. Yashil iqtisodiyot sanoatda xatarlarni kamaytirish mexanizmini tushuntiring.
61. Yashil iqtisodiyot sanoatda korporativ imidjni yaxshilashdagi rolini izohlang.
62. Sanoatda energiya samaradorligini oshirish bo'yicha davlat siyosatini sharhlang.
63. Yashil iqtisodiyot sanoatda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishiga qanday ta'sir qilishini tushuntiring.
64. Yashil iqtisodiyot sanoatda transchegaraviy ekologik muammolarni hal etishga qanday yordam berishini izohlang.
65. Yashil iqtisodiyot sanoatda ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirishga ta'sirini tushuntiring.
66. Yashil iqtisodiyot sanoatda investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini sharhlang.
67. Yashil iqtisodiyot davlat va xususiy sektor hamkorligini sanoatda qanday mustahkamlashini izohlang.
68. "Yashil loyihalar"ni investitsiyalashda qo'llaniladigan moliyaviy dastaklarni aniq loyiha misolida qo'llab ko'rsating.
69. OAV ma'lumotlaridan foydalanib ekologik muammoni hal etish bo'yicha amalga oshirilgan aniq misolni keltiring va tushuntiring.
70. Bazaviy tarmoqlarda energiya samaradorligini oshirish uchun qo'llanayotgan chora-tadbirlarni amaliy misollar bilan ko'rsating.
71. Sanoatda chiqindilarni boshqarishning yashil usullarini korxonada faoliyatiga tatbiq etib ko'rsating.
72. Sanoat korxonalarida ekologik sertifikatlash jarayonini bosqichma-bosqich qo'llab tushuntiring.
73. Sanoatda ishlab chiqarish jarayonlarini ekologik tozalash usullarini amaliy holatga tatbiq eting.
74. Sanoat korxonalarida ekologik ekspertiza o'tkazish tartibini misolda ko'rsating.
75. Sanoatda chiqindilarni qayta ishlashning ahamiyatini real ishlab chiqarish misolida yoritib bering.
76. Sanoatda ekologik menejment tizimini joriy etish bo'yicha amaliy ketma-ketlikni ishlab chiqing.
77. Sanoat korxonalarining ekologik inspeksiyalarga tayyorgarligini amaliy tartibda ko'rsating.
78. Sanoat korxonalarida ekologik audit o'tkazish bosqichlarini qo'llab tushuntiring.

79. Sanoatda ishlab chiqarishning ekologik xavfsizligini ta'minlash choralari amaliy vaziyatga tatbiq qiling.
80. O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish zaruriyatini keltirib chiqarayotgan omillarni tahlil qiling.
81. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishning milliy iqtisodiyotdagi tarkibiy va texnologik o'zgarishlarga ta'sirini tahlil qiling.
82. "Yashil iqtisodiyot" va "yashil o'sish"ni baholash zaruratini omillar kesimida tahlil qiling.
83. Jahon "yashil obligatsiyalar" bozorining amal qilish xususiyatlari va rivojlanish yo'nalishlarini tahlil qiling.
84. Jahonda yoqilg'i-energetika resurslari tanqisligi va energiya iste'moli ortishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qiling.
85. Tiklanadigan energiya iste'molining tarmoq va hududiy tarkibidagi o'zgarishlarni belgilovchi omillarni tahlil qiling.
86. Jahon organik qishloq xo'jaligi rivojlanish holati, tarkibi va tendensiyalarini tahlil qiling.
87. Global ekologik muammolarning globallashtirish jarayoni bilan bog'liqligini tahlil qiling.
88. O'zbekistondagi ekologik muammolarning kelib chiqish sabablari va ularni hal etish yo'llarini tahlil qiling.
89. Rivojlanayotgan mamlakatlarda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish zaruriyati va strategiya ishlab chiqishdagi muammolarni tahlil qiling.
90. MDH mamlakatlarida "yashil iqtisodiyot" bo'yicha milliy strategiyalarning umumiy va farqli jihatlari qiyosiy tahlil qiling.
91. Rossiyada "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan omillarni tahlil qiling.
92. O'zbekistonda suv resurslaridan oqilona foydalanishning maqsadli ko'rsatkichlarini tahlil qiling.
93. Sanoat korxonalarining moliyaviy ko'rsatkichlariga yashil iqtisodiyotning ta'sirini tahlil qiling.
94. Sanoatda ishlab chiqarishning ekologik samaradorligini baholash mezonlarini tahlil qiling.
95. Sanoat korxonalarining yashil iqtisodiyotga o'tishdagi asosiy qiyinchiliklarini tahlil qiling.
96. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish uchun zarur shart-sharoitlarning yetarliligini baholang.
97. Suveren fondlarning "yashil loyihalar"ni moliyalashtirishdagi o'rnini baholang.
98. Tiklanadigan energiya manbalarini o'zlashtirishga yo'naltirilayotgan investitsiyalar tarkibini baholang.
99. O'zbekistonda "yashil energetika"ni rivojlantirish istiqbollari baholang.
100. Qishloq xo'jaligini "yashil iqtisodiyot" asosida rivojlantirish zaruriyatini baholang.

101. Qishloq xo'jaligini "yashillashtirish" va organik mahsulot ishlab chiqarishga o'tish strategiyasi imkoniyatlarini baholang.
102. O'zbekistonda organik qishloq xo'jaligini rivojlantirish imkoniyatlarini baholang.
103. Ekologik muammolarni global muammolar sifatida birinchi navbatda hal etish zarurligini baholang.
104. Dunyo mintaqalaridan qaysi biri ekologik muammolar nuqtai nazaridan nisbatan barqaror ekanini baholang va asoslang.
105. Qozog'iston Respublikasida "yashil iqtisodiyot"ga o'tish konsepsiyasining ustuvor yo'nalishlari va amalga oshirish bosqichlarini baholang.
106. O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish zaruriyatini baholab, xulosa chiqaring.

Fan o'qituvchisi

N.A.Zuxurova